

## INGLIZ TILINI O'RGANISHDA, YANGI SO'ZLARNI YODLASH METODLARI

*Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti, Amaliy ingliz tili  
kafedrası o'qituvchisi*

*E-mail: aliyevas907@gmail.com.*

*Sheraliyeva Mo'minaxon Ulug' bek qizi*

*Farg'ona davlat universiteti, Xorijiy til va adabiyoti  
yo'nalishi 2- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Metod- so'zi yunon tilidan olingan bo'lib " bilish yoki tadqiqot yo'li" degan ma'nolarni anglatadi. Metodlar yordamida biz o'rganish jarayonini osonlashtirishimiz mumkin. Asosan ,metodlar xorijiy tillarni o'rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Shu sababli til o'rganish jarayonida , o'rganuvchilar turli xil metodlardan foydalanishlari lozimdir.

**Abstract:** The word method means " knowing or research way " from greek. With the help of methods we can make learning much easier. Mainly, methods help to ease the process of learning foreign languages. For this reason in the process of learning foreign language, learners should use different learning methods.

**Kalit so'zlar:** metod, chet tili, element , qaydnoma , flashkarta, moslashtirish.

### **Kirish.**

Bilamizki , bugungi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu yil fizika va chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan. O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta'lim muassasasida o'qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016-yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan bitiruvchi o'quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshgan. Joriy yilda □El-yurt umidi□ jamg'armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o'qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bu o'tgan yillarga nisbatan 5 barobar ko'pdir.

*"Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal*

*bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim*<sup>1</sup> - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Darhaqiqat , yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek xorijiy tillarni chuqur va yangi metodlar orqali , yoshlarda tilga muhabbat uyg'otish orqali biz ham o'z davlatimizni jahondagi boshqa mamlakatlar bilan tenglashtira olishimiz mumkin. Zero , tarbiyali va ta'limli yoshlar har sohada Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shib , bayrog'imzni dunyoga tanitmoqdalar.

Chet tillarini o'rganishda muhim element yangi so'zlarni yod olishdir. Bu esa, o'rgangan so'zlarni ko'paytirib , yanada ko'p mavzularda gaplasha olish imkonini beradi. Bu shuni ko'rsatadiki, Ingliz tilini o'rganishda yangi so'zlarni yodlash metodlari juda katta ahamiyatga ega. Undan foydalanish orqali siz o'rgangan so'zlaringizni uzoqroq eslab qolish va yanada ko'proq yangi so'zlarni o'rganishingiz mumkin. Buning uchun esa , yangi so'zlarni o'rganishning bir nechta qadamlari yoki metodlarini qo'llash lozim .

Birinchi qadam - yozma qaydnomalar.

Yangi so'zlarni yodlash uchun eng oson va sodda yo'l - yozma qaydnomalar. O'rgangan so'zlarni rasmlar orqali ifodalash va qayd etish orqali siz yangi so'zlarni osonroq esda saqlab qolishingiz mumkin.. Bu holda siz o'rgangan so'zlaringizni tez yodlab, ularni qo'shimcha qiyosiyliklar bilan ham biriktirishingiz mumkin. Masalan siz oddiy " beautiful " ya'ni " chiroyli" so'zini o'rgandingiz. Faqatgina shu so'z bilan kifoyalanmagan holda siz " beautiful" so'zining antonim va sinonimlarini o'rganishingiz mumkin . Masalan : " Beautiful" - " Nice " (chiroyli) , va " Beautiful " - " Ugly " ( Xunuk) . Bu esa sizga bir vaqta ham tez , ham samarali usulda so'z o'rganish imkonini beradi.

Ikkinchi qadam - o'yinlar

Bugungi kunda, internetda ko'p sonli o'yinlar mavjud, bir qancha usullar orqali yangi so'zlar o'rganishingiz mumkin. Bu o'yinlar so'z o'rganish uchun juda qulay, chunki siz o'rganilayotgan so'zlarni qo'shishingiz va ular haqida batafsil ma'lumot olishingiz mumkin. Shu bilan bir qatorda , o'yinlar orqali so'zlar yordamida yangi gaplarni to'g'ri tuzish kabi bilimlarni olishingiz ham mumkin. Siz yangi so'zni qatnashtirish orqali gaplar tuzasiz va bu sizga so'zni 50% eslab qolish imkonini beradi.

Uchinchi qadam - flashkartalar.

Flashkartalar -yangi so'zlarni oson eslab qolishning eng foydali yo'llaridan biridir. Menimcha , til o'rganuvchilar so'z yodlash uchun alohida vaqt yoki kun sarflashlari bois , ular ko'p vaqt yo'qotadilar. Buning oldini olish uchun , kichik varoqlarga yangi so'zlarni yozib olib , ularni eng ko'p vaqt sarflanadigan joylarga ,

<sup>1</sup> [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz). Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselekt

masalan oshxona yoki darsxonalarga qo'yish orqali so'zlarni oson va avtomatik tarzda yod olish mumkin.

To'rtinchi qadam- O'zbek tiliga moslashtirish usuli.

Ingliz tilida so'z yodlayotgan o'quvchi yana bir qiziq holatga duch kelishi mumkin. U ham bo'lsa, ba'zi inglizcha so'zlarning o'zbekcha so'zlar bilan nafaqat ohangdosh, balki ma'nodosh ekanligi hamdir. Albatta, bunga o'xshash so'zlar sanoqli, lekin harakat va izlanishlar orqali bunday so'zlarni ko'plab topishingiz va so'z boyligingizni yanada ko'paytirishingiz mumkin.

Quyida shunday so'zlardan misollar keltiramiz:

To chop - chopmoq

Daddy - dada

To'g'ridan-to'g'ri, yangi so'zlarni yodlashning ko'plab usullari mavjud. Ularni qo'llashga qodir bo'lish, o'rganuvchida ingliz tilingini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, o'rganuvchining turli tilda qiziqarli ma'lumotlar olish qobiliyatini oshiradi. Bu esa, shaxsning zamonaviy davrda o'z o'rniga ega bo'lgan insonlarga o'xshash bo'lishiga yordam beradi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

- 1 [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz). Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektrda.
- 2 Toirova N. et al. LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN EASTERN CULTURE //FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 75-84.
- 3 Sarvinoz A., Maftuna A. LINGUOCULTURAL PECULARITIES OF THE UZBEK GEORTONYM NAVRUZ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 28. – C. 180-186.
- 4 Alieva, S., & Rozikova, G. (2023). LINGUOCULTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THANKSGIVING DAY LEXEMES IN ENGLISH NATION. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 227–232. Retrieved from <https://researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/2809>
- 5 Aliyeva S. A. Q. LINGUOCULTURAL PROPERTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 135-140.